

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING KITOBXONLIKKA  
QIZIQTIRISHDA INTERAKTIV METODLARDAN  
FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

*Yo'lidasheva Naimaxon Ubaydullo qizi  
Qo'qon universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi  
2-bosqich talabasi  
Tel: +998 88 820 24 40  
naimaxonyoldosheva61@gmail.com*

**Annotatsiya:** Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va yosh avlodni kitobga mehr qo'yishga o'rgatish bugungi ta'lim tizimining eng dolzarb vazifalaridan biridir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun kitobxonlik nafaqat bilim olish manbai, balki dunyoqarashni kengaytirish, tafakkur va tasavvur doirasini oshirish uchun ham muhimdir. Shu bois, o'quvchilarining kitobga bo'lgan qiziqishini uyg'otish va uni doimiy ravishda rivojlantirish uchun samarali usullarni qo'llash talab etiladi. Interaktiv metodlar aynan shu jarayonda markaziy o'rinn tutadi, chunki ular o'quvchilarining faol ishtirokini ta'minlab, o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich sinflar, kitobxonlik, interaktiv metodlar, muhokama, tafakkur, bilim, ko'nikma.

**Аннотация:** Формирование культуры чтения и воспитание у подрастающего поколения любви к книгам является одной из самых актуальных задач современной системы образования. Для учащихся начальной школы чтение является не только источником знаний, но и важным для расширения их мировоззрения, расширения кругозора и воображения. Поэтому необходимо использовать эффективные методы, чтобы вызвать у учащихся интерес к книгам и постоянно его развивать. Интерактивные методы играют в этом процессе центральную роль, так как обеспечивают активное участие учащихся и делают процесс обучения более интересным и эффективным. **Ключевые слова:** начальная школа, чтение, интерактивные методы, обсуждение, мышление, знания, умения.

**Abstract:** Forming a reading culture and teaching the younger generation to love books is one of the most urgent tasks of today's education system. For primary school students, reading is not only a source of knowledge, but also important for broadening their worldview, expanding their horizons and imagination. Therefore, it is necessary to use effective methods to arouse students' interest in books and constantly develop it. Interactive methods play a central role in this process, as they ensure the active participation of students and make the learning process more interesting and effective.

**Keywords:** primary school, reading, interactive methods, discussion, thinking,

knowledge, skills.

## KIRISH

Interaktiv metodlar deganda o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro aloqani kuchaytiruvchi, o‘quvchilarning faolligini rag‘batlantiruvchi, ularni mustaqil fikrlashga va ijodiy yondashishga undovchi ta’lim texnologiyalari tushuniladi. Boshlang‘ich sinfda bu metodlar o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, o‘yin, muhokama, guruh ishlari, multimedia vositalari, interaktiv taqdimotlar va boshqa shu kabi shakllarda qo‘llaniladi. Bunday metodlar kitobxonlikka qiziqtirishda o‘quvchilarning diqqatini jamlash, mavzuni chuqurroq anglash va o‘zaro fikr almashishni ta’minalashda muhim rol o‘ynaydi. Kitobxonlikka qiziqtirishda interaktiv metodlarning afzalliliklari ko‘p. Avvalo, ular o‘quvchilarning qiziqishini uyg‘otadi, chunki o‘yinlar, rolli o‘yinlar, viktorinalar va boshqa interaktiv faoliyatlar kitobdagi ma’lumotlarni yanada jonli va tushunarli qiladi. O‘quvchilar faqatgina matnni o‘qibgina qolmay, uni turli shakllarda ifodalash, muhokama qilish va o‘z fikrlarini bildirish imkoniga ega bo‘ladilar. Bu esa ularning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va kitobga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Interaktiv metodlar o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Masalan, o‘quvchilar kitobdagi voqealarni tahlil qilib, muallifning fikrini muhokama qiladilar, o‘z qarashlarini bildiradilar. Bu jarayon o‘quvchilarning tafakkur doirasini kengaytiradi, ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatadi. Shu bilan birga, interaktiv metodlar o‘quvchilarning nutq madaniyatini oshirishda ham yordam beradi, chunki ular o‘z fikrlarini aniq va ravon ifodalashga harakat qiladilar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlari interaktiv metodlarni qo‘llashda muhim omil hisoblanadi. Bu yoshdagи bolalar uchun o‘rganish jarayoni qiziqarli va harakatli bo‘lishi lozim. Ular uchun uzoq vaqt davomida passiv o‘tirish qiyin, shuning uchun interaktiv metodlar yordamida o‘quv jarayonini jonlantirish, diqqatni jamlash va bilimlarni mustahkamlash mumkin. Masalan, kitobdagi voqealar asosida sahna ko‘rsatish, guruh bo‘lib hikoyani davom ettirish, savol-javob o‘yinlari o‘quvchilarning diqqatini ushlab turadi va ularni kitobga yanada yaqinlashtiradi. Interaktiv metodlar yordamida o‘quvchilar o‘zaro hamkorlikda ishlashni o‘rganadilar. Guruh ishlari, muammoli vazifalarni birgalikda hal qilish, fikr almashish jarayonlari o‘quvchilarda jamoaviy ruhni shakllantiradi. Bu esa nafaqat kitobxonlikka qiziqishni oshiradi, balki ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Kitobdagi mavzularni birgalikda muhokama qilish, har bir o‘quvchining fikrini tinglash va qadrlash, o‘zaro hurmatni mustahkamlaydi. Shuningdek, interaktiv metodlar o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi. Kitobdagi mavzular asosida rasm chizish, she’r yozish, kichik hikoyalar yaratish kabi faoliyatlar bolalarning tasavvurini kengaytiradi va ular o‘qigan matnni yanada chuqurroq anglashlariga yordam beradi.

Bu esa kitobga bo‘lgan qiziqishni yanada kuchaytiradi va o‘quvchilarning o‘zini ifoda etish imkoniyatlarini oshiradi.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Multimedia vositalarining interaktiv metodlarga qo‘shilishi kitobxonlik jarayonini yanada boyitadi. Audio va video materiallar, animatsiyalar, interaktiv taqdimotlar o‘quvchilarga matnni turli shakllarda qabul qilish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun juda muhim, chunki ular ko‘proq vizual va eshitish orqali o‘rganishga moyil bo‘ladilar. Multimedia vositalari yordamida kitobdagi mavzularni jonlantirish, voqealarni yanada qiziqarli qilish mumkin. Interaktiv metodlarning samaradorligini oshirish uchun o‘qituvchilar maxsus tayyorgarlik ko‘rishi zarur. Ular metodlarni to‘g‘ri tanlash, o‘quvchilarning yosh va qobiliyatlarini hisobga olish, darslarni rejorashtirishda interaktiv elementlarni kiritish bo‘yicha malakaga ega bo‘lishlari lozim. Shu bilan birga, ota-onalar bilan ham hamkorlik qilish muhimdir, chunki uyda ham kitobxonlikka qiziqishni qo‘llab-quvvatlash o‘quvchilarning muvaffaqiyatini oshiradi. [1]

Kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda interaktiv metodlar nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini oshiradi, balki ularning shaxs sifatida rivojlanishiga ham ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu metodlar orqali o‘quvchilar o‘zlarini erkin ifoda eta olishadi, jamoada ishlashni o‘rganadilar, ijodiy fikrlash qobiliyatları rivojlanadi. Natijada, ular kitobni faqat bilim manbai sifatida emas, balki hayotiy tajriba va zavq olish vositasi sifatida qabul qiladilar.[2]

Boshlang‘ich sinfda kitobxonlikni rivojlantirish masalasi ta’lim jarayonida juda muhim o‘rin tutadi. Kitobxonlik nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini oshiradi, balki ularning tafakkur doirasini kengaytiradi, so‘z boyligini oshiradi va ijodiy fikrlash qibiliyatini rivojlantiradi. Shu bois, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otish va uni doimiy odatga aylantirish uchun samarali usullarni aniqlash va tatbiq etish zarur.[3]

Kitobxonlikni rivojlantirish jarayonida birinchi navbatda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va qiziqishlari inobatga olinishi lozim. Yosh bolalar uchun kitoblarni tanlashda ularning mavzusi, rasm va matnlarning uyg‘unligi, o‘quvchilarning qiziqishini uyg‘otadigan, ularni o‘qishga undaydigan xususiyatlarga ega bo‘lishi muhimdir. Bolalar uchun qiziqarli va sodda til bilan yozilgan, rang-barang rasmlar bilan boyitilgan kitoblar ularning e’tiborini jalb qiladi va o‘qishga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. Shu bilan birga, kitoblarning mazmuni bolaning kundalik hayotiga yaqin, uning o‘rganayotgan mavzulari bilan bog‘liq bo‘lishi o‘quv jarayonini yanada samarali qiladi. Kitobxonlikni rivojlantirishda o‘qituvchining roli juda katta. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki kitobga mehr uyg‘otuvchi, o‘quvchilarning o‘z qiziqishlarini topishlariga yordam beruvchi rahbar sifatida faoliyat yuritishi kerak. O‘qituvchi o‘zi kitob o‘qishga qiziqishi, o‘quvchilarga kitoblarni tavsiya qilishi, ularni o‘qish

jarayoniga jalb qilishi muhim. Darslarda kitoblarni faollik bilan qo'llash, o'quvchilarga kitobdagi hikoyalarni tushuntirish, ular bilan suhbatlar tashkil etish kitobga bo'lgan qiziqishni oshiradi. O'qituvchi o'quvchilarga o'z fikrlarini erkin ifoda etish imkonini berishi, ularni o'qigan kitoblari haqida gapirishga rag'batlantirishi kerak.[4]

Bolalar o'qishga qiziqishini oshirish uchun interaktiv usullarni qo'llash samarali hisoblanadi. Masalan, o'qilgan matn asosida o'yinlar o'tkazish, rol o'ynash, viktorinalar tashkil etish, guruhda ishslash kabi faoliyatlar o'quvchilarning diqqatini jamlashga yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilarni ijodiy ishlar bilan shug'ullanadir, masalan, o'qigan kitoblari haqida rasm chizish, kichik hikoyalar yozish, sahna ko'rsatish kabi topshiriqlar berish ularning kitobga bo'lgan qiziqishini mustahkamlaydi. Bu usullar o'quvchilarning o'qish jarayoniga faol ishtirok etishini ta'minlaydi va ularni o'qishga yanada mehr qo'yishga undaydi. Maktab kutubxonalarining roli ham kitobxonlikni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Kutubxonalar zamonaviy, qulay va o'quvchilarga mos bo'lishi kerak. Kutubxonada kitoblarning turli janrlari, mavzulari bo'lishi, o'quvchilarga o'zlariga yoqqan kitoblarni tanlash imkonini berishi muhimdir. Shu bilan birga, kutubxonada kitobxonlik soatlari, kitob taqdimotlari, mualliflar bilan uchrashuvlar kabi tadbirlar o'tkazish o'quvchilarning kitobga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Kutubxona xodimlari o'quvchilarga kitob tanlashda yordam berishi, ularni yangi kitoblar bilan tanishtirishi lozim. Uy sharoitida ham ota-onalarning kitobxonlikni rag'batlantirishdagi roli katta. Ota-onalar bolalar bilan birga kitob o'qishi, ularga kitob o'qishning foydasi haqida gapirishi, kitob o'qish uchun qulay muhit yaratishi zarur. Bolalar ota-onalarining kitob o'qish odatini ko'rganida, ular ham o'zları uchun kitob o'qish qiziqarli va foydali ekanligini anglaydi. Shu bois, ota-onalar va maktab o'rtasida samarali hamkorlik o'rnatish, kitobxonlikni rivojlantirish bo'yicha umumiy strategiyalar ishlab chiqish muhimdir.[5]

Zamonaviy texnologiyalar kitobxonlikni rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Audio kitoblar, elektron kitoblar, interaktiv o'quv dasturlari bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishini oshirishda foydali vositalar hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bu kabi texnologiyalar o'qishni yanada qiziqarli va osonlashtiradi. Shuningdek, o'quvchilarga multimedia vositalaridan foydalanish orqali kitobdagi mavzularni yanada yaxshi tushunishga yordam berish mumkin. Masalan, o'qilgan hikoyalar asosida video ko'rsatish, animatsiyalar yaratish yoki musiqiy qo'llanmalar bilan tanishtirish o'quvchilarning diqqatini jamlaydi va ularni kitobga qiziqtiradi. Kitobxonlikni rivojlantirishda mакtabda kitobxonlik klublarini tashkil etish ham samarali usullardan biridir. Bu klublarda o'quvchilar o'zaro fikr almashish, yangi kitoblar haqida suhbatlashish, o'qilgan kitoblar bo'yicha turli tadbirlar o'tkazish imkoniga ega bo'ladi. Kitobxonlik klublari o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi, ularni jamoaviy ishslashga o'rgatadi va o'qishga

bo‘lgan qiziqishni oshiradi. Shuningdek, maktabda kitobxonlik tanlovlari o‘tkazish, o‘quvchilarni rag‘batlantirish uchun mukofotlar tizimini joriy etish ham kitobga bo‘lgan qiziqishni oshirishda muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarning o‘qish qobiliyatini oshirish uchun darslarda kitoblarni faol qo‘llash zarur. Kitoblardan faqat o‘qish uchun emas, balki mavzularni chuqurroq o‘rganish, yangi bilimlarni mustahkamlash uchun foydalanish darslarni yanada samarali qiladi. O‘quvchilarni mustaqil o‘qishga rag‘batlantirish, ularga o‘zlari uchun qiziqarli mavzularni tanlash imkonini berish kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda muhimdir. Shu bilan birga, o‘quvchilarning o‘qishdagi muvaffaqiyatlarini doimiy ravishda kuzatib borish, ularni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash zarur.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kitobxonlikka qiziqtirishda interaktiv metodlardan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu metodlar o‘quvchilarning faolligini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga undaydi, jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi va ijodiy qobiliyatlarini kengaytiradi. Interaktiv metodlar yordamida o‘quvchilar kitobga bo‘lgan qiziqishni yo‘qotmay, uni hayotlarining ajralmas qismiga aylantiradilar. Shu bois, maktablarda interaktiv metodlarni keng joriy etish va o‘qituvchilarni bu borada doimiy ravishda qo‘llab-quvvatlash zarur. Bu esa keljak avlodning bilimli, tafakkurli va madaniyatli bo‘lib voyaga yetishiga xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Ergashev K. "Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida diqqatni rivojlantirishning pedagogik asoslari". 2021 yil. Toshkent davlat pedagogika universiteti.
2. Usmonova G. "Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish". 2022 yil. Ilmiy adabiyotlar markazi.
3. Toshpo‘latov O. "Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi". 2023 yil. O‘zbekiston pedagogika universiteti.
4. Normurodova D. "Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda kitobxonlikni rivojlantirish usullari". 2020 yil. Toshkent pedagogika universiteti.
5. G‘oziyev E. "Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining psixologik xususiyatlari va kitobxonlik". 2019 yil. Ilm ziyo nashriyoti, Toshkent.
6. Xudoyberanova G. "Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qishga qiziqishni oshirish metodlari". 2022 yil. O‘zbekiston milliy universiteti.
7. Royuv E.I. "Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida diqqatni rivojlantirish va kitobxonlikni oshirish usullari". 2019 yil. Ilm ziyo nashriyoti, Toshkent.